

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ VA SUV  
XO'JALIGI VAZIRLIGI**

**TOSHKENT IRRIGATSIYA VA MELIORATSIYA  
ISTITUTI**

**YERDAN FOYDALANISH VA YER KDASTRI FAKULTETI  
“GEODEZIYA VA YER KADASTRI ” KAFEDRASI**

***YER KADASTRI***

**3-mavzu: . Davlat er kadastrining tarkibiy qismlari**

**3.3. Erlarni baholash, iqtisodiyot tarmoqlarida uning  
ahamiyati**

**Тошкент 2013.**

Erlarni baholash davlat er kadastrining tarkibiy qismi bo'lgani holda, iqtisodiyot tarmoqlarida foydalaniladigan tabiiy resurslarni umumiylashtirish uchun umumiy tarzda baholashning bir qismi hisoblanadi. Bunda ayniqsa qishloq hujaligining asosiy ishlab chiqarish vositasi sifatidagi erlarni baholash alohida ahamiyat kasb etadi. U joyning mintaqaviy farqini hisobga olish va taqqoslash bo'yicha muhim muammolardan biri sifatida gavdalanganadi. Iqtisodiyotning aksariyat masalalarini, shuningdek qishloq xo'jalik korxonalarini ichki masalalarini, davlatning erdan foydalanganlik uchun to'lovlar siyosatini er tuzish va erdan foydalinish muammolarini va arning sifat holatini va uni qiyosiy baholamasdan turib muvaffaqiyatli hal qilish mumkin emas.

Erning qishloq xo'jaligida asosiy ishlab chiqarish vositasi sifatidagi asosiy xususiyati – uning unumdarligidir. Er maydonining, aniqrog'i tuproqning o'simliklarni unga zarur bo'lgan ozuqa moddalari va zarur namlik bilan ta'minlay olish qobiliyatiga tuproq unumdarligi deyiladi.

Iqtisodiyot fani asosan quyidagi tuproq unumdorliklarini ajratadi: tabiiy, sun'iy, potensial, haqiqiy hamda iqtisodiy.

Tabiiy unumdorlik tabiatning o'zi orqali hosil bo'ladi. U uzoq davom etadigan tuproq paydo bo'lish va rivojlanish jarayonida iqlim, o'simliklar, joyning relefi, ona jinslarining ta'siri ostida paydo bo'ladi hamda xossasini o'zgarib turadi. U tuproqlarning fizik, kimyoviy va biologik xossalari bilan tavsiflanadi. Ammo tabiiy unumdorlikka asoslanib ernen haqiqiy sifatiga baho berib bo'lmaydi.

Potensial va haqiqiy unumdorlik deb, tabiiy-iqlimiylar va boshqa omillarni hisobga olgan holda tuproqning qishloq xo'jalik ekinlarini ozuqa moddalariga bo'lgan talabini qondirish qobiliyatiga aytiladi. Insonning asosiy vazifasi ushbu jarayonni boshqarish, tuproqni ishdan chiqishiga yo'l qo'ymaslik, undagi ozuqa moddalarini o'simliklar o'zlashtirishiga imkon yaratishdan iborat.

Iqtisodiy unumdorlik tuproq unumdorligining haqiqiy ifodasi sifatida gavdalanadi. Hamda u dehqonchilik madaniyatining unumdorlik darajasi sifatida tavsiflanadi. Tuproqning iqtisodiy unumdorligi sarflangan kapital mablag'lar miqdoriga, ishlab chiqaruvchi kuchlar va ishlab chiqarish munosabatlarining rivojlanish darajasiga, mahsulotlarni qayta ishlash, sotish va boshqa omillarga bog'liqdir. Iqtisodiy unumdorlik odatda absolyut va nisbiy unumdorliklarga bo'linadi. Absolyut unumdorlik - bu ma'lum bir sharoitda etishtirilgan mahsulotlar miqdori bilan ifodalanadi va ma'lum birlikdagi er maydonining hosildorlik ko'rsatkichi yordamida tavsiflanadi.

Nisbiy unumdorlik esa turlicha er maydonlarining qayd qilingan unumdorligi bilan ifodalanadi hamda ma'lum miqdorda sarflangan har ajatlar evaziga olinadigan mahsulot miqdori bilan tavsiflanadi. Ushbu, yuqorida keltirilgan unumdorliklar darajalarini belgilash, erlearning qiymatini aniqlash maqsadida tuproq bonitirovkasi hamda erlarni iqtisodiy jihatdan baholash kabi maxsus er baholash ishlarini o'tkazish zarurati tug'iladi.

E'tirof etish joizki, iqtisodiyoy muammolar ichida O'zbekiston Respublikasi uchun mavjud foydalanilayotgan erlar samaradorligini oshirish, erlarni muhofaza qilish, tuproqlar unumdorliklarini tiklash va oshirib borish kabilar muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda.